

“TASDIQLAYMAN”

Mirzo Ulug’bek nomidagi



Samarqand davlat arxitektura-qurilish
universiteti rektori

Ch.J. Turkeyilmaz

2023 yil

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Madaniy meros obektlarini asrash” fakulteti va “Arxitektura yodgorliklarini
rekonstruksiyasi va restavratsiyasi” kafedrasining “Biz kelajak
bunyodkorlarimiz 2023” shiori asosida onlayin olimpiada o‘tkazish**

NIZOMI

Umumiy qoidalar

1. Olimpiadaning maqsad va vazifalari. Olimpiadaning asosiy maqsadi talabalarning bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish, yurtimizning boy madaniy merosini chuqur o’rganish, bugungi salohiyatli, yosh ijodkorlarni tarbiyalashda badiiy madaniyat, yangi ijodiy qirralarini ochish, badiiy fikrlash tafakkurini yuksaltirish orqali yosh ijodkorlarni ijodiy bilimini kengaytirish hamda ijodiy faoliyatini mukamallashtirish va rag’batlantirishdan iborat.

2. Olimpiadaga rahbarlik qilish. Olimpiada “Madaniy meros obektlarini asrash” fakulteti dekanati va “Arxitektura yodgorliklarini rekonstruksiya va restavratsiya qilish” kafedrasini bilan hamkorlikda olib boriladi.

3. Olimpiadani o‘tkazish joyi va muddati. 25.12.2023 dan boshlanib, 5.01.2024 kuni soat 16:00 ga qadar elektron (jpg, pptx) shaklida qabul qilinadi.

Tayyor bo‘lgan ijodiy ishlar quyidagi telegram manzil orqali yuboriladi:

1-2-kurslar: Odilova Fayoza (+998-97-618-08-53)

3-4-kurslar: Nurmurodova Yulduz (+998-90-503-97-58)

4. Olimpiadaning ishtirokchilari. Olimpiada “Madaniy meros obektlarini asrash” fakultetida ta’lim olayotgan yosh iqtidorli talabalar o’rtasida bo‘lib o’tadi.

5. Olimpiadani o‘tkazish tartibi va o‘rinlarni aniqlash. “Biz kelajak bunyodkorlarimiz 2023” olimpiadasi quyidagi tartibda o‘tkaziladi:

- Olimpiadada talabalarning ijodiy ishlari mohirlik bilan ishlanganligiga, yangiligi, fantaziyasi va mavzuning keng yoritilishi inobatga olinib baholanadi.

- Olimpiadadagi talabalarning ijodiy ishlarini baholash “Arxitektura yodgorliklarini rekonstruksiya va restavratsiya qilish” kafedrasini mutaxassis o‘qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi; (ilova 1).

Baholash natijasiga ko‘ra quyidagicha o‘rinlar beriladi:

1 ta 1- o‘rin, 2 ta 2-o‘rin, 3 ta 3 o‘rin

6. Olimpiada g'oliblarini taqdirlash. Taqdirlash marosimi 12-yanvar kuni "Madaniy meros obektlarini asrash" fakultetida bo'lib o'tadi. Olimpiadada I -II- III o'rnlarni qo'lga kiritgan va faol ishtirokchilar universitet raxbariyatining faxriy yorlig'i va rag'batlantiriluvchi sovg'alar bilan taqdirlanadilar.

- A) birinchi o'r'in uchun- faxriy yorliq, kitob va kelgusi olimpiadaga yo'llanma
 B) ikkinchi o'r'in uchun- faxriy yorliq, kitob;
 C) uchinchi o'r'in uchun- faxriy yorliq, kitob.

7. Ko'rk –tanlov komissiyasi tomonidan baholash uchun taqdim etilgan taqdimod (slayd) quyidagi talablarga javob berishi kerak.

- taqdimot (slayd) varaqlar soni 20-25 betgacha bo'lishi kerak.
- taqdimot (slayd) da ma'lumotlar jiddiy va kerativ joylashgan bo'lishi kerak.
- taqdimot (slayd) e'lon qilingan tanlov yo'nalishiga mos kelinishi kerak.

8. Taqdimot (slayd)larni baholash olimpiada ishchi gurihi a'zolari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan amalga oshiriladi.

Tr	Baholash mezonlari	Baholash
1.	Taqdimot (slayd) da olimpiada yo'nalishi mazmun va mohiyatini to'laqonli ochib berilganligi	20 balgacha
2.	Taqdimot (slayd)ning mazmuni unga bog'liq bo'lgan jarayonlarni kiriativ nuqtai nazardan aks etganlik darajasi	15 balgacha
3.	Taqdimot (slayd)dagi mantiqiylik, ishtirokchining dunyoqarashi, fikrlash doirasi va e'tiborini jalb qila olish.	15 balgacha
4.	Taqdimot (slayd) o'ziga xos bo'lishi va taqdimot jarayonida foydalanish uchun qulay bo'lishi	15 balgacha
5.	Taqdimot (slayd)ning sifatliligi va belgilabgan betlar yuzasida to'liq ochib berilganligi.	20 balgacha
6.	Taqdimot (slayd)ning jozibadorligi, boshqa taqdimot slaydlardan ajralib turishi.	15 balgacha
Jami:		100 ball

NAMINATSIYA VA YO'NALISHLAR

"YOSH TADQIQOTCHI" yo'nalishi bo'yicha

Izoh: 1-kurslar uchun-“Arxiologiyaga kirish” fanidan.

1. Afrosiyob mo'ziyidagi, Shox Varxuman saroyi devoriy suratlariga Power Point (slayd) qilib izoh berish.
2. Ko'ktepa yodgorligi va undagi So'x malikasi xonaqohidan topilgan ashyolarga Power Point (slayd) qilib izoh berish.

"YOSH RESTAVRATOR" yo'nalishi bo'yicha

Izoh: 2-kurslar uchun-“Fotografik hujjatlar” fanidan.

1. O'zbekistondagi me'moriy yodgorliklardan birini, davrlar kesimida o'zgargan holdagi rasmlarini enternet tarmog'idan foydalanib to'plab, Power Point (slayd) qilib izoh berish.
2. Shoxizinda majmuasi, arxitekturasini tarixiy shakllanish bosqichlarini o'rganib Power Point (slayd) qilib izoh berish.

**“TA’MIRLASH LOYIHASI USTA SHOGRDI” yo’nalishi bo’yicha
Izoh: 3-kurslar uchun-“Madaniy me’rosni asrashda intererni loyixalash”
fanidan.**

1.Binoni intererini ta’mirlash loyihasini ishlab chiqish va Power Point dasturida (slayd) qilib izoh berish.

**“TA’MIRCHI ME’MOR” yo’nalishi bo’yicha
Izoh: 4 kurslar “Arxitekturaviy yodgorliklarni ta’mirlash” fanidan.**

1.Arxitrkturaviy yodgorliklaridan alohida naqishni ta’mirlash bo’yicha naqish chizmasi chizib, guvash usili yoki shkarli bo’yoq bilan bo’yab topshrish.

Izoh: 4 kurslar “Jamoat binolari renovatsiyasi” fanidan.

1.Qadimiy va eski jamoat binosini renovatsiya loyihasining ishlab chiqish va tahlil qilish.

YAKUNIY QOIDALAR

- Tanlovda qatnashmoqchi bo’lgan talabalar ushbu nizom bilan tanishib chiqib, ishtirok etishlari mumkin.

- Ishtirok etish qoidalarini yoki ushbu Nizom bilan tartibga solinmagan masalalarni noaniq talqin qilishga imkon beradigan vaziyatlar yuzaga kelganda, bunday sharhlash yoki tushintirish bo’yicha yakuniy qaror to’g’ridab to’g’ri tanlov tashkilotchilari tomonidan qabul qilinadi.

**Arxitektura yodgorliklarini
rekonstruksiyasi va restavratsiyasi ”
kafedrasi mudiri**

 D.M. Mirzayev

Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
“Madaniy meros obektlarini asrash” fakulteti dekanati va “Arxitektura
yodgorliklarini rekonstruksiyasi va restavratsiyasi” kafedrasining “Biz kelajak
bunyodkorlarimiz 2023” onlayin olimpiada o’tkazish

NIZOMIga ilova 1

Onlayin olimpiada Hakamlar hay’ati tarkibi:

Rais:

- 1.Zubaydullaev U.Z.
- 2.Luqmonov.D.Q.
- 3.Nurmurodova Yu.B.
- 4.Odilova F.O.

Mirzaev D.M. “AYoRvaR” kafedra
mudiri

A’zolar:

- “AYoRvaR” katta o‘qituvchisi
“AYoRvaR” katta o‘qituvchisi
“AYoRvaR” katta o‘qituvchisi
“AYoRvaR” katta o‘qituvchisi

Onlayin olimpiadaning appilatsiya hay’ati tarkibi:

Rais:

- dotsenti
1.Jurayeva E.E
2.Yakubova H
3.Maxmatqulov I.M
4.Axunjonov A.M.

Qayimov X.I. “AYoRvaR” kafedra

A’zolar:

- “AYoRvaR” kafedra katta o‘qituvchisi
“AYoRvaR” kafedra katta o‘qituvchisi
“Madaniy meros obektlari” fakulteti
dekanı
Xodimlar va talabalar boshlang’ich
kasaba uyushmasi raisi

Arxitektura yodgorliklarini
rekonstruksiyasi va restavratsiyasi ”
kafedrasi mudiri

 D.M.Mirzayev

